

**INNOVATIONS IN
TECHNOLOGY AND
SCIENCE EDUCATION**

SCIENTIFIC JOURNAL



- Exact Sciences
- Medical science
- Natural Sciences
- Technical Sciences
- Pedagogical Sciences
- Social Sciences
- Philosophical Sciences
- Philology
- Economics



 WWW.HUMO SCIENCE.COM

SJIF 2023: 5.305



OJS / PKP

ISSN
2181-371X

SJIF 2023: 5.305

VOLUME 2 ISSUE 15

INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION



INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

(OCTOBER)
2023

VOLUME 2
ISSUE 15

ISSN
2171-381X

SJIF 2023
5.305



BOSH MUHARRIR:

Toxirov A'zamjon Ibrohim o'g'li

**MULOQOT INSONIYATNING YUKSAK MA'NAVIY EHTIYOJI
SIFATIDA****Abuzalova Mehriniso Kadirovna**

f.f.d.,

BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida professori

mexriniso-6590@mail.ru**Boltayeva Nodira O'tkir qizi**

"TIQXMMI" MTU BuxTRBI O'zbek tili va adabiyoti,

xorijiy tillar kafedrasida stajyor-o'qituvchisi

boltayevan620@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada muloqotning inson hayotida yuksak ma'naviy ehtiyoj sifatidagi ahamiyati xususida fikr yuritilgan. Muloqot jamiyat bilan bog'liq holda kechadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, u jonli mavjudotlarga xos bo'lsa-da, biroq inson darajasida eng rivojlangan ko'rinishlarda namoyon bo'lishi izohlangan. Shuningdek, lug'atlarda muloqotga berilgan ta'rif xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, ma'naviyat, inson, jamiyat, nutq, nutqiy faoliyat, ma'naviy ehtiyoj, ong, shaxs, xabar.

Annotation. The article discusses the importance of communication as a high spiritual need in human life. It is explained that communication is a social process that takes place in connection with society, although it is characteristic of living beings, but it is manifested in the most developed forms at the human level. Dictionaries also mention the definition of communication.

Аннотация. В статье рассматривается значение общения как высокой духовной потребности в жизни человека. Объясняется, что общение – это социальный процесс, происходящий в связи с обществом, хотя он и свойствен живым существам, но проявляется в наиболее развитых формах на уровне человека. В словарях также упоминается определение общения.

KIRISH. “Muloqot bu shunday ne’matki, u orqali inson lazzatlanadi” [2]. Ma’lumki, muloqot insonlarning jamiyat bilan bog‘liq holda kechadigan, yuksak ongli mavjudot sifatidagi kundalik ehtiyoji natijasida yuzaga keladi. Muloqot barcha jonli mavjudotlarga xos bo‘lsa-da, biroq inson darajasida u eng rivojlangan ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi, chunki nutq yordamida anglanadi. Insonning nutqiy faoliyati ongning barcha qirralari bilan uzviy bog‘langan. Nutq – inson kamolotining, shaxs sifatida shakllanishining qudratli omili hisoblanadi. Aksariyat insonlar muloqot deganda faqat ikki va undan ortiq kishilar o‘rtasidagi xabarlar almashinuvini tushunadi. Lekin “muloqot” tushunchasining biz bilmagan turlicha ta’riflari mavjud. Avvalo, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga murojaat qilamiz, unda quyidagicha ta’rif berilgan:

Muloqot (arabcha – uchrashish, ko‘rishish; qabul qilish) – uchrashuv; musohaba. “So‘zga chiqqanlar bunday ijodiy muloqotlarni tez-tez o‘tkazib turish zarurligini gapirdilar” [Gazetadan]. **Muloqot qilmoq** – uchrashmoq. “Xurosonning barcha ulug‘ zotlari bilan muloqot qilmoqqa... fursat kelgan” [Oybek. Navoiy] [9]. Demak, muloqot oddiygina axborot almashinuvi emas, balki keng ma’noda “uchrashuv” ma’nosiga ham teng ekan.

Psixologiya lug‘atida muloqot tushunchasiga ikki xil ta’rif beriladi: 1. Muloqot — hamkorlikdagi faoliyat ehtiyoji bilan taqozolangan aloqa o‘rnatish va uni rivojlantirish jarayoni. 2. Muloqot — belgilar tizimi orqali subyektlarning o‘zaro ta’sirlashuvi [6].

Muloqot insonlarning his-tuyg‘ularini, muayyan ma’lumotlarni bir-birlariga yetkazib berishidan iborat bo‘lgan fikr almashinuv jarayoni hisoblanadi.

Muloqot – jamiyat a’zolari orasida hamfikrlilik faoliyati ehtiyoji natijasida yuzaga keladigan axborot almashinuvi, shu bilan birga, o‘zaro muomalaning yagona foydali yo‘lini izlab topish, boshqalar fikrini idrok qilish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishning murakkab hamda keng qamrovli jarayoni hisoblanadi [3]. Bizningcha, bu “muloqot” tushunchasining nisbatan to‘liqroq ta’rifi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Jahon tilshunosligiga nazar tashlasak, rus tilshunos olimi **G.V.Kolshanskiy** lisoniy faoliyat asosida muloqot maqsadi turishini va til tizimi birliklarining asosiy vazifasi kommunikativ faoliyatni ta'minlash ekanligini ta'kidlagan. Uning ta'biricha, kommunikatsiya har doim fikr va axborot almashinish maqsadini ko'zlaydi yoki, boshqacha aytganda, u insonning mehnat va ijtimoiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan amaliy va nazariy ehtiyojlarini qondiruvchi muloqot sanaladi [7]. Kommunikatsiya kommunikativ faoliyatning asosini tashkil etadi hamda u o'zaro fikr almashishga undovchi, ikki tomonlama axborot almashinuvi jarayoni hisoblanadi. Muloqot tushunchasini kommunikatsiyadan farqlash kerak. Kommunikatsiya muloqotga nisbatan keng ma'noda qo'llaniladi. U umumiy tushuncha hisoblanadi. Kommunikatsiya — tirik va o'lik tabiatdagi tizimlar orasidagi axborot almashinuvini bildiradi. Hayvonlar o'rtasidagi signallar almashinuvi, insonning texnik vositalar bilan aloqa qilishi — bularning barchasi kommunikatsiya. Muloqot esa faqat insonlar orasidagina amalga oshiriladi.

Muloqot inson hayotida xilma-xil vazifalarni bajaradi. Ko'plab tadqiqotchilar muloqotning turli funksiyalarini ajratib ko'rsatganlar. Xususan, rus psixologvisti, ijtimoiy psixologiya tadqiqotchisi, olimi **G.M.Andreyeva** muloqotning **“kommunikativ, interaktiv va perseptiv”** vazifasini sanab o'tgan. Bizningcha, kommunikativ vazifa – muloqot ishtirokchilari orasida bo'ladigan axborot almashinuvi, interaktiv vazifa – muloqot ishtirokchilarining o'zaro ta'sir etishi, perseptiv vazifa – muloqot ishtirokchilarining muloqot jarayonida bir-birini tushunish va qobiliyati.

Psixologiya fanining rivojiga hissa qo'shgan tadqiqotchi **M.I.Enikeyev** muloqotning **“axborotli-kommunikativ, boshqaruv-kommunikativ, perseptiv-samarali va affektiv-ekspressiv (emotsional o'zini ifodalash)”** vazifalarini ko'rsatib o'tgan.

Yana bir rus olimi **A.A.Brudniy** esa **“instrumental, sindikatli, translyatsiya, o'zini ifodalash”** vazifalarini ajratadi. Instrumental vazifa muloqotning harakatni bajarish uchun muhim axborotni yetkazishdan iborat bo'lgan asosiy ishchi vazifasi

hisoblanadi. Bu vazifaga yaqin bo'lgan, lekin unga o'xshash bo'lmagan vazifa – sindikativ (birlashtirish) vazifa. Ko'pchilik muloqot aktlarining bevosita maqsadlari katta va kichik guruhlardagi odamlar o'rtasidagi umumiylikni aniqlash va mustahkamlashdan iborat. Sindikativ vazifa bilan o'zini ifodalash vazifasi bir-biriga yaqindir. O'zini ifodalash o'z mohiyatiga ko'ra, hamfikrlikka, aloqaga qaratilgan. Alohida o'rinni ijodiy faoliyatdagi o'zini ifodalash egallaydi, u faoliyat mahsuli sifatida ijtimoiy ahamiyatga ega, chunki u odamlar o'rtasidagi muloqot predmetiga aylanadi. Va nihoyat, muloqotning translyatsion – faoliyatning aniq usullari, baholash mezonlari va dasturlarni yetkazish vazifasi muhim ahamiyatga ega. Bu vazifa ta'lim olish asosida yotadi: muloqot orqali shaxsning ta'lim olishi amalga oshadi [1].

Muloqot xususida tadqiqot olib borgan olimlardan biri **L.A.Karpenko** maqsadga ko'ra muloqotning sakkiz xil vazifasini belgilaydi:

1) aloqaviy vazifa – xabarlarni qabul qilish va yetkazish hamda o'zaro aloqada bo'lishga ikkala tomonning tayyorlik holati sifatida aloqa o'rnatish;

2) axborotli vazifa – xabarlar, fikrlar, maqsadlar, yechimlar va boshqalar almashinuvi;

3) chorlovchi vazifa – muloqot bo'yicha sherikni u yoki bu harakatlarni bajarishga yo'naltiruvchi faolligini rag'batlantirish;

4) boshqaruvchi vazifa – hamkorlik faoliyatini tashkil etishda harakatlarni o'zaro yo'naltirish va muvofiqlashtirish;

5) anglash vazifasi – yetkazilgan ma'lumotning mohiyatini mutanosib holda idrok qilish va tushunishgina emas, balki sheriklarning ham o'zaro bir-birlarini tushunishlari (istaklari, mayllari, kechinmalari, holatlari va h.k.);

6) amotiv vazifa – sherikda zarur hissiyotli kechinmalarni uyg'otish ("hislar almashinuvi"), shuningdek, uning yordamida shaxsiy kechinma va holatlarni o'zgartirish;

7) munosabatlarni o'rnatish – individ mavjudligi kutilayotgan jamiyatdagi roli, darajali, ish bo'yicha, shaxslararo va boshqa aloqalari tizimlarida o'z o'rnini anglash va qayd etish;

8) **ta'sir o'tkazish** – sherikning holati, xulq-atvori, shaxsiy-mazmunli hosilalari, shuningdek, istaklari, mayllari, fikrlari, yechimlari, tasavvurlari, ehtiyojlari, harakatlari, faolligi va boshqalarni o'zgartirish [4].

Mashhur rus psixologi, kognitiv psixologiya asoschisi va muloqot psixologiyasi sohasi bo'yicha mutaxassis **B.F.Lomov** muloqotning quyidagi vazifalarini taklif etadi:

a) axborotni qabul qilish-yetkazish jarayonlarini o'z ichiga olgan **axborot-kommunikativ**;

b) hamkorlik faoliyatini amalga oshirishda harakatlarni o'zaro tuzatish bilan bog'liq **boshqaruvchi-kommunikativ**;

d) inson hissiyotlari sohasiga tegishli bo'lgan va o'z emotsional holatini o'zgartirishdagi ehtiyojlarga javob beruvchi **affektiv-kommunikativ** vazifalar [1].

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan vazifalar jonli muloqot jarayonida amalga oshiriladi.

MUHOKAMA. Muloqot nega kerak? Insonlar bir-birlari bilan ko'rishganda nimalar haqida gaplashishadi? O'zbek millatiga xos muloqot jarayonini kuzatar ekanmiz, unda ma'lum bir qolipga solingan ketma-ketliklarni uchratamiz. Avval quyuc salomlashib, keyin o'zaro hol-ahvol so'rash, oilasi va yaqinlarining salomatligi haqida qayg'urish, kundalik hayot tarzi, turish-turmushi yuzasidan suhbat qurish, dardlashish, xayrlashayotib bir-birlariga tinchlik-omonlik tilash. Mana shu oddiy muloqotning o'zida xalqimizning cheksiz mehr-oqibati, bag'ri keng tabiati, insonparvarligi shundoqqina ko'rinib turadi.

Muloqot bilan bog'liq muammolarni millat aholisining o'ziga xos urf-odatlarini, an'ana va qadriyatlarini hisobga olmay turib tadqiq etish mumkin emas. Negaki, muloqot millat xarakterining bir qismi hisoblanib, unda xalqning milliy madaniyati yaqqol aks etib turadi. Agar muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz va nutqimiz ham rivojlanmaydi.

Muloqot o'ziga xos fikr almashinuv jarayoni sifatida **mazmun, maqsad, vosita** kabi tarkibiy qismlarga ega. Quyida ularga birma-bir izoh berib o'tamiz:

Muloqot mazmuni – bu o'zaro aloqalarda bir kishining ikkinchi bir kishiga yetkazadigan axboroti. Muloqot mazmuniga insonning ichki emotsional holati

(mamnunlik, shodlik, g‘azab, qayg‘u, hijron va boshqalar) haqidagi ma‘lumotlarni kiritishimiz mumkin. Bunday axborot shaxslararo aloqa o‘rnatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Muloqot maqsadi – bu insonda ushbu faoliyat turi yuzaga keladigan sabab. Insonlar orasida muloqot maqsadlari soni juda ham ko‘p. Ularga yuqorida sanab o‘tilganlardan tashqari, dunyo haqidagi bilimlarga ega bo‘lish va ularni boshqalarga yetkazish, ta‘lim va tarbiya, odamlarning hamkorlik faoliyatlaridagi turli harakatlarning muvofiqlashuvi, shaxsiy va ish bo‘yicha o‘zaro munosabatlarning o‘rnatilishi va boshqalar kiradi. Odamlarda ular ko‘plab ijtimoiy, madaniy, bilish, ijodiy, estetik, aqliy o‘shish, axloqiy rivojlanish kabi ehtiyojlarni qondirish vositasi bo‘lib hisoblanadi. Mashhur rus psixologi va faylasufi **A.N.Leontevning** fikriga ko‘ra, har bir nutq akti “o‘ziga xos nutqning shakli va turi, aniq sharoitlar va muloqot maqsadlariga ko‘ra, turli nutq vositalarini qo‘llashni talab etuvchi psixologik muammoning yechimini topishdan iborat” [5].

Muloqot vositalarini muloqot jarayonida bir shaxsdan boshqasiga yetkaziladigan axborotni kodlashtirish, uzatish, qayta ishlash va ochib berishga xizmat qiluvchi vositalar sifatida ta‘riflash mumkin.

Muloqot vositalariga quyidagilar kiradi:

1. **Til** – muloqot uchun qo‘llaniladigan so‘zlar, ifodalar va ularni muloqot jarayonida qo‘llash maqsadida ma‘noli iboralarga birlashtirish qoidalari tizimi, shuningdek, turli ko‘rinish va shakllardagi (matnlar, chizmalar, suratlar), axborot yozish, yetkazish va saqlashning texnik qurilmalari (radio va videotexnika, yozuvning mexanik, magnitli, lazerli va boshqa shakllari)dagi belgilar tizimlari va yozuvdan iborat bo‘lgan vosita. Shuning uchun ham u noyob hodisa hisoblanadi. Insonlarning til vositasida muloqot qilishi nutq deyiladi. Til – muloqot vositalarining qat‘iy me‘yorga solingan tizimi, nutq esa – muloqot jarayonida fikr va hissiyotlarni boshqalarga yetkazish uchun asosiy qo‘llanma. Nutq shaxslararo munosabatlar va muloqotda eng asosiy qurol hisoblanadi. Nutq – ma‘lumot yetkazish, ko‘rsatma, savol, buyruq berish

shaklida amalga oshiriladigan nutqiy muloqot jarayoni. U faqat insonga xos bo'lgan faoliyat.

2. **Ohang, emotsional ifodalanganlik** – bir xil iboraga turlicha ma'no berishga qodir vosita.

3. Suhbatdoshning **mimikasi, gavda holati, nigohi** – ibora ma'nosini kuchaytirishi, to'ldirishi yoki rad etishi mumkin bo'lgan vosita.

4. **Imo-ishoralar** – umumiy qabul qilingan, ya'ni belgilangan ma'noga ega bo'lgan va ekspressivlik (nutqning ifodaliligi)ni yanada oshiruvchi vosita.

5. Suhbatdoshlar muloqotidagi **masofa** – madaniy va milliy an'analarga hamda suhbatdoshga bo'lgan ishonch darajasiga bog'liq vosita.

Shuni aytib o'tish joizki, inson hayotida muloqot alohida jarayon sifatida mavjud bo'lmaydi. U jadal va ko'p tomonlama, individual yoki guruhli amaliy faoliyatga kiradi.

XULOSA. Demak, inson muloqotda shakllanadi, rivojlanadi va shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy muloqotda ruhiyat taraqqiy etadi va inson o'zini hayotga joriy etadi. Ruhiy jihatdan rivojlangan odamlar bilan muloqotda bo'lish orqali ilm olishga bo'lgan keng imkoniyatlar evaziga inson o'zining barcha yuksak qobiliyat va sifatlarini egallab borib, har tomonlama mukammal shakllangan komil inson darajasiga yetadi. Darhaqiqat, qadimgi Rim shoiri va notig'i **Publitsiy** aytganidek: “ovoz orqali gaplashamiz, butun tanamiz orqali suhbatlashamiz” [8]. Zero, har bir ishda me'yori bo'lgani kabi, muloqot jarayonining ham o'ziga xos me'yori mavjud. Muloqot chog'idagi me'yoriylik nutq madaniyati qonun-qoidalariga amal qilish orqali namoyon bo'ladi. Nutq faoliyatidagi me'yoriylik adabiy til va nutq vositalaridan belgilangan lisoniy qonun-qoidalar asosida o'rinli foydalanishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduraximova M.R., Muminov S.M. Tilshunoslikda verbal va noverbal muloqot. Research and education. Multidisciplinary scientific journal. Volume 1. Issue 2. May, 2022. –P.429-432. https://t.me/ResearchEdu_Journal

2. Антуана де Сент-Экзюпери. Планета людей (Нора Галь таржимаси). 1963. –Б.37.
3. Voltayeva N.O‘. Muloqot va uning o‘ziga xos xususiyatlari // Лучшие интеллектуальные исследования. Международный электронный журнал. Кокан – 2023. Июль. Часть 1, том 2. –С.160-163.
4. Дружинина В. “Психология. Учебник. “Питер”, 2003. –С.484.
5. Jovliyeva N.B. Muloqotchanlik va notiqlikni rivojlantirishda psixologik qarashlar // Sharq falsafasi. 2022-yil, oktabr. 100-bet.
6. Maxsudova M. Muloqot psixologiyasi. O‘quv qo‘llanma. — T.: “Turon-Iqbol”, 2006. 5-bet.
7. Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi. Toshkent: “Universitet”, 2014. –B.15
8. Югай А.Х., Мираширова Н.А. “Общая психология”. Учебное пособие. – Ташкент: ТГПУ, 2014. -С.560.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 2-жилд. -Т.:«Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2006. 636-бет.

MUNDARIJA

1	АСРЛАРДАН ЎЗГАН ТУЙҒУЛАР Ситора Тождидинова	7
2	РАЗВИТИЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ ПРЕДМЕТА "ТЕХНОЛОГИЯ" Муқимова Зиёдахон Мохир қизи	14
3	XITOZAN VA UNING BIRIKMALARINI QISHLOQ ХО‘JALIGIDAGI AHAMIYATI Musaeva G.A. , Mengliyev A.S.	21
4	VALYUTA RISKLARINI XORIJ TAJRIBALARI ORQALI BOSHQARISH YO‘LLARI VA USULLARI Azimova Dilnoza Azamatovna	29
5	THE PATH TO SUPPLY CHAIN EXCELLENCE: A COMPREHENSIVE CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR COMPETITIVENESS Oyatullokh Akmalov, Dr. Summera Khalid	39
6	GRAMMATICAL FEATURES OF THE LEXEMES “WHITE” AND “BLACK” IN ENGLISH AND KARAKALPAK LANGUAGES Khudaybergenova Zukhra Urazbaevna	53
7	QUYOSH KONSENTRATORLARI FOKUSINING YORUG‘LIK ZICHLIGI TAQSIMOTI. Salimov Sardor Samadovich	61
8	SEMANTIC GROUPINGS OF ENGLISH LEXICON Medetova Jasmina	68
9	DEFORESTATION AND HOW TO SAVE THE GREEN PLANET. Kdirbaeva Aksungul Rustemovna	71
10	KUZATUV — JURNALISTIKANING AN‘ANAVIY USULI SIFATIDA Malikova Go‘zal	76
11	JANGOVAR RUH – JANGCHINING QUDRATLI QUROLI Sherzod Xasanovich Xudayberdiyev	81
12	POYEZDLAR HARAKATI GRAFIGINI TEZKOR O‘ZGARTIRISHNING ZAMONAVIY HOLATI Butunov Dilmurod Baxodirovich, Abduqodirov Sardor Asqar o‘g‘li, Abdumalikov Islomjon Obidjon o‘g‘li	88
13	BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF INFORMATIKA	99

- O‘QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASHNING MUHIM XUSUSIYATLAR**
Z.K.Ilyasova
- 14 ZAMONAVIY UY-JOY FONDINI BOSHQARISH TIZIMI 106**
SAMARADORLIGINI OSHIRISH
Berdiyeva Dilfuza Axatovna, Aminova Naima Umar qizi
- 15 MURAKKAB VA MURAKKABLASHGAN SINTAKTIK 113**
BIRLIKLAR ATAMALARINING O‘ZBEK TILI SINTAKSISIDA YORITILISHI
Ne‘matova Malikaxon Zafarjon qizi
- 16 JAMOAT TARTIBI VA JAMOAT XAVFSIZLIGI 122**
TUSHUNCHALARIGA TURLICHA QARASHLAR TAHLILI
Aytbaev Sanjar Sadullaevich
- 17 РОЛЬ ЭНДОВИДЕОХИРГИЯ В СИМУЛЬТАННЫЕ 129**
АБДОМИНАЛЬНЫЕ ОПЕРАЦИИ (Обзор литературы)
Усмонов Хусниддин Кутбидинович
- 18 НЎХАТНИНГ ЛАЛМИКОР МАЙДОНЛАРДА СЕЛЕКЦИЯ 141**
ИШЛАРИНИНГ НАТИЖАЛАРИ
Исаков Камолитдин Туйгунович, Нахалбаев Жахангир Турсунбаевич
- 19 ARXITEKTURAVIY LOYIHALASH FANINI O‘QITISHDA 151**
KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI
Yakubova H.B.
- 20 КАРТОШКА ЕТИШТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ 162**
ҚИЁСИЙ ШАРХИ
А.А.Исаков, Ш.Хўрозова
- 21 KURASHCHILARNI INTEGRAL TAYYORGARLIGINI 172**
OSHIRISHDA ETNOSPORT TURLARI XALQ XARAKATLI O‘YINLARI METODIKASIDAN FOYDALANISH.
Tug‘anboyeva Zamiraxon Shuxratbek qizi
- 22 IMPLEMENTATION AND LEGAL BASIS OF THE 187**
PROSECUTOR'S CONTROL OVER LAW ENFORCEMENT IN GENERAL SECONDARY, SPECIAL SECONDARY AND PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS
Munira Kurbanovna Bobomarova
- 23 HOW TO USE SYNONYMS EFFECTIVELY IN ARTICLES? 200**
Bozorboyeva Iroda Qutbiddin qizi, Sadikova Dildora Nizomovna

- 24 THE CONNECTION OF TRANSLATION WITH OTHER SUBJECTS. 209
Bahtiyorova Madinabonu Ulug`bek qizi, Astanova Dilafruz Murodovna
- 25 ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПОЗНАВАТЕЛЬНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ ПОДРОСТКОВ 219
Султанова Махфират Акрамовна
- 26 TIZIMLI SKLERODERMA BILAN OG`RIGAN BEMORLARDA YURAK VA QON TOMIR ZARARLANISHINI ELEKTROKARDIOGRAFIK BAHOLASH 225
Nabiyeva A.X. , Djuraeva E.R. , Tolipov O`U. , Bekenova G.T. Matchanov S.X.
- 27 KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RAQAMLASHTIRISHNING ASOSIY JIHLARI 228
Raximov.T.J. , Ozodova.F.Z.
- 28 INGICHKA BARGLI LAVANDA (LAVANDULA ANGUSTIFOLIA MILL.) KO`PAYTIRISH USULLARI. 236
Shomuratov Sarvarbek Otabekovich
- 29 ҚАЙТА ТИКЛАНУВЧИ МАНБАЛАРДАН ЭЛЕКТР ЭНЕРГИЯ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ВОСИТАЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. 243
Эргашев Бахтиёр Аблоқулович, Суярова Камола Баходир қизи
Даминова Мухайё Собир қизи
- 30 TIJORAT BANKLARIDA RISK MENEJMENT AMALIYOTIGA TA`SIR ETUVCHI KO`RSATKICHLAR TAHLILI 248
Ne`matullayeva Muxlisa Nasrullo qizi
- 31 ЎСМИРЛАРДА ЭМОЦИОНАЛ - ҲИССИЙ ЗЎРИҚИШЛАРНИ ПРОФИЛАКТИКА ҚИЛИШГА ҚАРАТИЛГАН ТРЕНИНГЛАР 256
Орифова Сабоат Якубовна
- 32 DATA ANALYTICS MODEL IN LOAN APPROVAL PREDICTION 262
Norboev Bekhzod
- 33 СТИЛИСТИЧЕСКОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ГЛАГОЛОВ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ РЕЧИ 270
З.Р.Алиева
- 34 НОРМАТИВНЫЕ АСПЕКТЫ ПЕРЕВОДА 278
Сабирова Ш.
- 35 BOLALAR KITOVXONLIGI VA MEDIYA MUHITIDA BOLALIK KONSEPTINING IFODALANISHI. 287
Eraliyeva Zamira Rasuljonovna

- 36 “MAMLAKATIMIZDA YASHIL IQTISODIYOT LOYIHALARI AHAMIYATI VA ISTIQBOLI” 296
Turdiboyeva Kumush Erkinovna
- 37 PROSPECTS FOR THE USE OF LAYERED GASIFIERS USING 308
ANGREN BROWN COAL
Kavkatbekov M.M. , Babakhodjayev R.P. , Eshkuvatov L.M.
- 38 TALABALARNING INTELLEKTUAL-KOGNITIV 320
SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK
HUSUSIYATLARI
J.S.Otepbergenov
- 39 LEVERAGING A PLATFORM FOR ASYNCHRONOUS 329
TEACHING AND LEARNING
Арипова Елена Азизовна, Иномхожаева Шодияхон Абдукодирхожа кизи
- 40 TREATMENT AND OUTCOMES OF NON-IMMUNE HYDROPS 341
FETALIS
Pulatova G.A, Yusupbaev R.B
- 41 ANALYSIS OF ACCURACY OF CUBIC SPLINE FUNCTIONS 346
USING ANALYTIC FUNCTIONS
Zaynidinov Hakimjon, Azimov Bunyod, Kuchkarov Muslim,
Abduganiev Mukhriddin
- 42 ANALYSIS OF FORENSIC MEDICAL EXAMINATION OF 356
INJURIES ON "DAMAS" CARS
Khakimov Zaynobiddin Kabiljonovich, Imomov Khojiakbar Makhamadalievich
- 43 POLIFUNKSIONALLIK VA UNGA DOIR O‘ZBEK 361
TILSHUNOSLIGIDAGI QARASHLAR
Sulaymonova Zebiniso G‘ayrat qizi
- 44 IT-LOYIHALARNI BOSHQARISH TIZIMI VA ULARNI 370
TASHKIL ETISH
Hasanboy Toxirov
- 45 ELEKTROTEXNOLOGIK QURILMANING PARAMETRLARINI 374
NAZARIY ASOSLASH
Temurova Aziza
- 46 ТЕМА ПРОСТРАНСТВА В РОМАНЕ «ГОРДОСТЬ И 384
ПРЕДУБЕЖДЕНИЕ» ДЖЕЙНА ОСТИНА
Нуридинова Манзура Жураевна
- 47 THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE UZBEK AND 392
ENGLISH LANGUAGE GRAMMAR
Abdusamatov. F. M
- 48 DIDAKTIK KITOBLARNING KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI 395

- O‘QUVCHILAR DUNYOQARASHINI KENGATIRISHIDAGI O‘RNI.**
Abdullayeva Gularam Iskandarovna
- 49 TA’LIM JARAYONIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI** 400
Latifa Zarifovna Korayeva
- 50 ИҚТИСОДИЁТНИНГ РЕАЛ СЕКТОРИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ НАМОЁН БЎЛИШИ ХУСУСИЯТЛАРИ** 409
Хужамкулов Дилмурод Юсупалиевич
- 51 GNU OCTAVE VA UNING BOSHQA МАТЕМАТИКАВИЙ ТИЗИМЛАР БИЛАН ТА’ЛИМДА ҚО‘ЛЛАНИЛИШИ БО‘ЎИЧА ҚИЙОСИЙ ТАҲЛИЛИ** 421
Pardayeva Sabina Jumaboy qizi
- 52 ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ.** 429
Болтаева М.Ш.
- 53 ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ** 434
Убайдова Д. А.
- 54 TARIX FANIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING QO‘LLANILISHI** 441
Yo‘ldashev Umirzoq Xamza o‘g‘li
- 55 YER OSTI ILDIZXO‘R XASHAROTLARI VA ULAR ATROFIDAGI ILMIY NAZARIY TAXLILLAR** 449
Olimov Anvarjon Mamirovich
- 56 MULOQOT INSONIYATNING YUKSAK MA’NAVIY EHTIYOJI SIFATIDA** 457
Abuzalova Mehriniso Kadirovna, Boltayeva Nodira O‘tkir qizi
- 57 “EMERGING CYBERSECURITY THREATS: PROTECTING YOUR DIGITAL WORLD”** 465
Gulnoza Xamidova Akramjon qizi
- 58 DIGITAL ECONOMY AND ITS IMPACT ON SOCIETY** 476
Melikuzieva Zunnura Avazjon qizi
- 59 INCREASING THE EFFICIENCY OF ATTRACTING FOREIGN** 486